ТАСДИҚЛАЙМАН
Китоб тумани ирригатсия булим бошлиги
Д.Бердиев
"10" august 2022й

# Kitob tuman Irrigatsiya bo'limi

# TEXNIK VAZIFA

## Kitob tuman Irrigatsiya bulimidagi sug'orish tarmoqlarini tozalash, hamda gedrotexnika inshootlarini ta'mirlash ishlari uchun

## TANLOVNING MALUMOT JADVALI

### Ushbu bo'lim tanlov(konkurs) mavulariga oid aniq qoidalarga va tanlov xujjatlarining boshqa bo'limlarida keltirilgan malumotlarni yoki talablarni o'z ichiga oladi

| № | Texnik vazifa mazmuni | Vazifalarga izox |
|---|---|---|
| 1 | Buyurtmachi: | Kitob tuman irrigatsiya bo'limi |
| 2 | Tanlov mazmuni yoki nomi: | Kitob tuman Irrigatsiya bulimidagi sug'orish tarmoqlarini tozalash, hamda gedrotexnika inshootlarini ta'mirlash ishlari uchun |
| 3 | Tanlov nomeri | № |
| 4 | Tanlov elon qilingan joy | Kitob tumani B.I.Yuli kuchasi 1 uy |
| 5 | Aloka uchun shaxs: | Ruziyeva Moxigul Muhiddinova |
| 6 | Tanlov elon qilingan joy | O'zbekiston Respublikasi Tovar-xom ashyo birjasi etender.uzex.uz |
| 7 | Tanlov ishtirokchilari | Mulkchilik shaklidan qat'iy nazar istalgan yuridik shaxslar, shu jumladan, kichik biznes subyektlari-tanlov ishtirok etishi mumkin |
| 8 | Tanlovni o'tkazish sharti | 1 Tanlovda ishtirok etish uchun. tanlov ishtirokchisi qo'yidagilarni amalga oshirishi lozim:<br>a) tanlov shartlari bilan tanishish uchun maxsus axborot portalida joylashtirilgan tanlov hujjatlarining elektron nusxasini olish (ko'chirish); b) tanlov hujjatlar shartlariga muvofiq tanlov hujjatlarini topshirish.<br>2 Qo'yidagi ishtirokchilarning tanlovda qatnashishiga yo'l qo'yilmaydi:<br>qayta tashkil qilinish. tugallanish yoki bankrotlik bosqichini boshidn kechirayotgan;<br>"Buyurtmachi" bilan sudda yoki hakamlik sudda tortishayotgan;<br>Insofsiz ijrochilarning yagona ro'yxatiga kiritilgan;<br>soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha qarzdorligi bor;<br>3 Buyurtmachi qo'yidagi hollarda ishtirokchini xarid qilish taomilida ishtirok etishdan chetlashtiradi:<br>Ishtirokchi to'g'ridan-to'g'ri yoki vositali tarzda buyurtmachining yoki boshqa davlat organining hozirgi mansabdor shaxsiga yoki sobiq xodimiga davlat xaridlari jarayonida biron-bir harakatni amalga oshirish, qaror qabul qilish yoki biron-bir tanlov taomilini qo'llashga ta'sir ko'rsatish maqsadida har qanday shakldagi mukofot, ishga olishni yoki har qanday qimmatbaho buyum yoki xizmat ko'rsatishni taklif qilgan, bergan yoki bunga rozi bo'lgan taqdirda;<br>ishtirokchi adolatsiz tanlov ustunligiga ega bo'lsa yoki qonunga zid bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi mavjud |

| | | |
|---|---|---|
| | | bo`lsa. |
| 9 | Tanlov berish muddati tugaydigan sana, vaqt | 2022 yil |
| 10 | Tanlov taklifi va uni rasmiylashtirish tartibi | 1 Portalda e`lon qilingan tanlov ishtirokchilari, o`z takliflarini e`londa belgilangan tartibda yelimlangan konvertlarda tanlov o`tkazilishi haqidagi e`londa ko`rsatilgan manzil bo`yicha taqdim qiladi.<br>2 Tanlov ishtirokchilariga takliflarni varaqlari tikilgan, nomer qo`yilgan, muhrlangan, va ishtirokchi vakolatli shaxs imzosi bilan tasdiqlangan yoki taklifning har bir beti imzolangan holda taqdim etish tavsiya qilinadi<br>3 Ishtirokchining tanlov taklifi tanlov komissiyasi tomonidan ishchi organga pochta orqali yoki ishtirokchi vakolatli shaxsi orqali yetkaziladi. Tanlov taklifi berilishi sanasi va vaqti ishchi organ tomonidan tanlov takliflarini ro`yxatga olish jurnalida qayd qilinadi va ishtirokchi vakolatli shaxsi imzosi bilan tasdiqlanadi (agarda u mavjud bo`lsa).<br>4 Tanlov ishtirokchisi: taqdim qilinayotgan ma`lumotlar va hujjatlarning haqiqiyligi va ishonchliligi uchun ma`sul hisoblanadi; taqdim qilingan taklifni bunday takliflarni berish muddati tugaguncha qaytarib olish yoki unga o`zgartirish kiritishga haqli.<br>5 Tanlov taklifi tanlov shartlariga mos bo`lgan va qo`yidagi ma`lumotlarni qamrab oluvchi narxga oid qismdan tashkil topadi: xizmatning nomlanishi, xizmat ko`rsatish qiymati, yakuniy summa, to`lov shartlari, taklifning amal qilishi muddati va h.z.<br>6 Ishtirokchi takliflarni rahbar imzosi va tashkilot muhri bilan tasdiqlangan holda taqdim qilinishi zarur. Narxga oid taklif ham boshlang`ich shaklda beriladi.<br>7 Tanlov taklifi yelimlangan konvertda taqdim qilinadi (konvert yelimlangan joyida ishtirokchining muhri bilan).<br>8 Konvert ustki kismida quyidagilar ko`rsatilgan bo`lishi kerak:<br>- tanlov predmetining nomlanishi;<br>- ishtirokchining nomlanishi;<br>- buyurtmachining nomlanishi va uning manzili;<br>- lot rakami;<br>"takliflar berilishining so`nggi muddatigacha ochilmasin" (konvertlar ochilishi vaqti va sanasi ko`rsatilsin) degan qayd.<br>9 Narxga oid takliflar mavjudligiga talablar: Narxga oid taklif va narxlar jadvali ushbu yo`riqnomaga ilova qilinadigan belgilangan shaklga muvofiq holda.<br>10 Ishchi organ ushbu yo`riqnoma talablariga mos ravishda rasmiylashtirilgan, tanlov takliflari solingan konvertlar butligi va saqlanishi uchun ma`sul hisoblanadi. |
| 11 | Tanlov buyicha takliflarni baxolash vaqti | Танлов таклифини куриб чикиш муддати 3 иш кунидан ортик эмас |
| 12 | Shartnomani bajarish uchun kafolat mablag mikdori | Tanlov natijalari buyicha aniklangan ish narxining 3% mikdorida |
| 13 | Buyutmachilarning tanlov buyicha taklif qiladigan eng yukori narxi: | **450 450 000 sum** |
| 14 | Tanlovga takliflar beriladigan til: | O`zbek |
| 15 | Moliyalashtirish manbai: | Budjet mablag`lari xisobidan |
| 16 | Tulov valyutasi | O`zbekiston Respublikasi so`mi |